

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.13/30.12.2019.T.07.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

**YULDASHEVA NAFISA SALIMOVNA**

**AXBOROT TIZIMLARI FOYDALANUVCHILARINING OVOZI**  
**BO‘YICHA BIOMETRIK AUTENTIFIKATSIYALASH MODEL I VA**  
**ALGORITMLARI**

**05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari.**  
**Axborot xavfsizligi**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent-2024**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)  
on technical sciences**

**Yuldasheva Nafisa Salimovna**

Ахборот тизимлари фойдаланувчиларининг ovozi bo‘yicha biometrik  
autentifikatsiyalash modeli va algoritmlari ..... 3

**Юлдашева Нафиса Салимовна**

Модель и алгоритмы голосовой биометрической аутентификации  
пользователей информационных систем..... 21

**Yuldasheva Nafisa Salimovna**

Model and algorithms of biometric authentication based on the voices of  
information systems users ..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 45

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.13/30.12.2019.T.07.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

**YULDASHEVA NAFISA SALIMOVNA**

**AXBOROT TIZIMLARI FOYDALANUVCHILARINING OVOZI**  
**BO‘YICHA BIOMETRIK AUTENTIFIKATSIYALASH MODELI VA**  
**ALGORITMLARI**

**05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari.**  
**Axborot xavfsizligi**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent-2024**

**Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/T4177 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tuit.uz](http://www.tuit.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Tashev Komil Axmatovich**

texnika fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Kerimov Kamil Fikratovich**

texnika fanlari doktori, professor

**Yusupov Bahodir Karamatovich**

texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**“UNICON.UZ - Fan-texnika va marketing tadqiqotlari markazi” MChJ**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi DSc.13/30.12.2019.T.07.02 Ilmiy kengashning 2024-yil « 16 » noyabr soat 10<sup>00</sup> daqi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko‘chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-43, e-mail: [info@tuit.uz](mailto:info@tuit.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan.). (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko‘chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-70)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil « 4 » noyabrda tarqatildi.  
(2024-yil « \_\_\_ » noyabr daqi 16 raqamli reyestr bayonnomasi)

**B.Sh. Maxkamov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**M.S. Saitkamolov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**B.F. Abduraximov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o‘rinbosari, fizika-matematika fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Hozirda biometrik texnologiyalariga asoslangan xavfsizlikni ta'minlashga yo'naltirilgan ilovalarni ishlab chiqishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu yo'nalishda axborot tizimlari foydalanuvchilarining nutq signallarini ishlash va tanib olishga asoslangan usul, algoritm va ilovalarni ishlab chiqish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Xususan, GITNEX ma'lumotiga ko'ra "2025-yilda biometrik tizimlarni sotishdan tushadigan daromad butun dunyo bo'ylab taxminan 15,1 milliard dollarni tashkil etishi taxmin qilinmoqda<sup>1</sup>". Bu esa biometrik parametrlarga asoslangan, xususan, foydalanuvchilarni nutqiga asoslangan autentifikatsiya tizimlarini tadqiq etishni taqozo etadi. Hozirda AQSH, Xitoy, Angliya, Rossiya Federatsiyasi, Germaniya, Hindiston, Janubiy Koreya kabi davlatlarda axborot tizimlari foydalanuvchilarini nutq asosida identifikatsiyalash tizimlari asoslarini tashkil etuvchi nutq signallarini ishlash hamda nutq asosida shaxsni identifikatsiyalash yo'nalishlarining nazariy va amaliy masalalarini yechishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda nutq signallariga ishlov berish, nutq signali belgilarini shakllantirish, nutq va uning asosida shaxsni identifikatsiyalash usul va algoritmlarini takomillashtirish, ishlab chiqish hamda hisoblashning tezkor algoritmlarini yaratishga yo'naltirilgan keng qamrovli ilmiy ishlar olib borilmoqda. Bu borada, jumladan, nutq signallariga dastlabki ishlov berish, nutq joylashgan sohani aniqlash hamda nutqni xarakterlovchi informativ belgilarni ajratish, shaxsni identifikatsiyalash usul va algoritmlarini ishlab chiqish, takomillashtirish hamda nutq modellari va identifikatsiyalashning avtomatlashtirish tizimlarini yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mamlakatimizda ham nutq signallariga raqamli ishlov berish va tahlil qilishga asoslangan shaxsni biometrik identifikatsiyalashning intellektual tizimlarini ishlab chiqish va joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda davlat va bank xizmatlaridan foydalanish jarayonida shaxsni identifikatsiyalash tizimini takomillashtirishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-apreldagi PF-113-son farmonida keltirilgan "Davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirishning 2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan milliy strategiyasi"ning ustuvor yo'nalishlarida "bank-moliya va davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasida yagona identifikatsiya tizimini joriy etish", "davlat, bank, ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish va boshqa ma'muriy tartib-taomillardan o'tishda shaxsni identifikatsiya qilishning muqobil usullarini joriy etish" kabi vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda nutq signallariga ishlov berish va tahlil qilishning yondashuvi, modeli, usul va algoritmlarini, shaxsni nutqi asosida tanib olish va nutq signallarini, optimal belgilar majmuasini inobatga olgan holda, takomillashtirish, shuningdek, axborot tizimlaridan ruxsatsiz foydalanishni cheklash, foydalanuvchilarni nazorat qilish

---

<sup>1</sup> <https://gitnux.org/biometric-statistics/#:~:text=As%20of%202019%2C%2087%25%20of,increase%20in%20biometric%20data%20breaches.>

hamda boshqarish tizimlarida qo‘llash muhim biri hisoblanadi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiya sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5349-son, 2020-yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston- 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079 Farmonlari, 2023-yil 31-maydagi “O‘zbekiston Respublikasining muhim axborot infratuzilmasi obyektlari kiberxavfsizligini ta‘minlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-167-sonli qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Axborotlashtirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga mos ravishda bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Shaxsni biometrik identifikatsiyalash, nutq signallariga raqamli ishlov berish va tanib olish model, usul va algoritmlarini takomillashtirish hamda ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish bo‘yicha xorijiy olimlardan<sup>2</sup> L.R. Rabiner, H. Beigi, D.A. Reynolds, P. Nguyen, J.D. Markel, A.H. Grey, J.R. Vacca, J. Chirillo, Y. Liu, Y. Xian, X. Chen, T. Fu, A.A. Lanne, B.M. Lobanov, A.B. Agranovskiy, D.A. Lednov, A. Kozlov, O. Kudashev va boshqalarning ilmiy ishlari diqqatga sazovor.

Respublikamizda axborot xavfsizligini ta‘minlash, axborot tizimi foydalanuvchilarini identifikatsiyalashning nazariy asoslarini rivojlantirishga<sup>3</sup> S.K.Ganiyev, M.M.Karimov, D.T.Muxamediyeva, M.M.Musayev, N.S.Mamatov, Z.T.Xudoykulov, Sh.Z.Islomov va boshqalar o‘zlarining hissalarini qo‘shib kelmoqdalar.

Hozirgi kunda nutq signallariga ishlov berish va tahlil qilish asosida shaxsni biometrik identifikatsiyalash ilovalari, shuningdek, nutq bilan bog‘liq bo‘lgan

---

<sup>2</sup> L.R. Rabiner and R.W. Schafer “Introduction to Digital Speech Processing”; H. Beigi “Fundamentals of Speaker Recognition”; D.A Reynolds, T.F. Quatieri, R.B. Dunn “Speaker verification using adapted Gaussian mixture models”; Ch.Ch. Chiu, T.N. Sainath, Y. Wu, R. Prabhavalkar, P. Nguyen, Z. Chen, A. Kannan, R.J Weiss, K. Rao, E. Gonina, N. Jaitly, B.Li, J. Chorowski, M. Bacchiani “State-of-the-art speech recognition with sequence-to-sequence models”; J.D. Markel, A.H. Gray “Linear Prediction of Speech”; J.R. Vacca “Computer Forensics : Computer Crime Scene Investigation”; J. Chirillo, S. Blaul “Implementing Biometric Security”; K. Chen, D. Zhang, L. Yao, B. Guo, Z. Yu, Y. Liu “Deep learning for sensor-based human activity recognition: Overview, challenges, and opportunities”; Y.Xian, Y. Pu, Z. Gan, L. Lu, A. Thompson “Adaptive DCTNet for audio signal classification”; D. Yu, X. Chen, L. Deng “Factorized Deep Neural Networks for Adaptive Speech Recognition”; Y.Liu, Y. Qian, N. Chen, T. Fu, Y. Zhang, K. Yu “Deep feature for text-dependent speaker verification”; A.A. Lanne, T.V. Merkucheva “Filters with Double Symmetry”; B. Lobanov, L. Tsirulnik, D. Zhadinets, E. Karnevskaia “Language-and speaker specific implementation of intonation contours in multilingual TTS synthesis”; A.B. Agranovskiy, D.A. Lednov “Teoreticheskie aspekti algoritmov obrabotki i klassifikatsii rechevix signalov”; G. Lavrentyeva, S. Novoselov, E. Malykh, A. Kozlov, O. Kudashev, V. Shchemelinin “Audio replay attack detection with deep learning frameworks”

<sup>3</sup> S.K. Ganiyev, Z.T.Khudoykulov “Biometric cryptosystems: Open issues and challenges”; M.M. Karimov; Z.T.Khudoykulov; Sh.Z.Islomov “Biometric Cryptosystem Security Threats”; D.T. Muxamediyeva, N.A. Niyozmatova, R.A. Sobirov, B.N. Samijonov, E.K. Khamidov “Approaches to Solving Problems of Markov Modeling Training in Speech Recognition”; M. Musaev, S. Mussakhojayeva, I. Khujayorov, Y. Khassanov, M. Ochilov, H.A. Varol “USC: An open-source Uzbek speech corpus and initial speech recognition experiments”; N. Mamatov, N. Niyozmatova, A. Samijonov “Software for preprocessing voice signals”;

axborot xavfsizligi texnologiyalari jadal rivojlanmoqda. Ushbu yo‘nalish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar axborot tizimlarini himoyalashning biometrik texnologiyalari istiqbolli texnologiyalaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. Jumladan, shaxsni nutqi asosida identifikatsiyalash ilovalari foydalanuvchi uchun eng qulay identifikatsiyalash usuli bo‘lib, yuqori aniqlikdagi identifikatsiyalashni ta‘minlaydi va xarajatlarni keskin kamaytiradi. Hozirgi kunda shaxsni nutqi asosida identifikatsiyalashni ko‘plab usul va algoritmlari ishlab chiqilganligiga qaramay, ideal bo‘lmagan sharoitlardagi nutq signallari asosida identifikatsiyalashni amalga oshirish, real vaqt rejimi talablariga javob beruvchi usul va algoritmlarni takomillashtirish yoki ishlab chiqish muammosi yetarli darajada o‘rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining BV-Atex-2018 (240+147) “Yuz tasvirlarini oqimli qayta ishlash asosida shaxsni identifikatsiya qilish algoritmlari va dasturiy ta‘minotini ishlab chiqish” hamda Raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining IL-33,41-2105981 “Nutq signallarini qayta ishlash asosida shaxsni tanib olish algoritmlari va dasturiy mahsulotini yaratish” (2021-2023) mavzularidagi loyihalar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** nutq signallariga dastlabki ishlov berish va tahlil qilish asosida axborot tizimlari foydalanuvchilarini biometrik identifikatsiyalashning tezkor usul, algoritmlari va dasturiy majmuasini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ovozga asoslangan tizimlar uchun tahdid modelini ishlab chiqish va tahdidlarning risk darajasini hisoblash;

matnga bog‘liq hamda bog‘liq bo‘lmagan ovoz asosidagi autentifikatsiya usullarini takomillashtirish;

axborot tizimlarida foydalanuvchilarning nutq signallariga dastlabki ishlov berish algoritmini takomillashtirish;

foydalanuvchilarni autentifikatsiyalashda nutq signali belgilarini ajratib olish algoritmini ishlab chiqish;

shaxsni nutqi asosida identifikatsiyalashning chuqur neyron tarmoqli modelini ishlab chiqish;

nutq signallari asosida axborot tizimlari foydalanuvchilarini biometrik identifikatsiyalashning dasturiy majmuasini yaratish.

**Tadqiqotning ob‘yekt**i sifatida axborot tizimlari foydalanuvchilarini biometrik identifikatsiyalash jarayoni olingan.

**Tadqiqotning predmetini** shaxsni nutqi asosida biometrik identifikatsiyalashning model, usul va algoritmlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotlarni olib borish jarayonida tizimli tahlil, diskret matematika, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika, signallarga raqamli ishlov berish, timsollarni tanib olish va mashinali o‘qitish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

tahdidlarni tahlil qilish STRIDE metodologiyasi yordamida ovozga asoslangan tizimlar uchun tahdid modeli ishlab chiqilgan va DREAD modeli asosida tahdidlarning risk darajalari hisoblangan;

ovoz ma'lumotlarga dastlabki ishlov berish, belgilarni ajratish va chuqur neyron tarmoqqa asoslangan matnga bog'liq hamda bog'liq bo'lmagan ovoz asosidagi autentifikatsiya usullari takomillashtirilgan;

nutq signalini raqamli shaklga o'zgartirish, ovozdagi harakatsiz sohalarni olib tashlash va filtrlashga asoslangan nutq signallariga dastlabki ishlov berish algoritmi takomillashtirilgan;

mel-chastotali kepsstral koeffitsiyentlar usuliga asoslangan nutq signali belgilarini ajratish algoritmi va ovoz modelini hosil qilishda shaxsni nutqi asosida identifikatsiyalashning chuqur neyron tarmoqli modeli ishlab chiqilgan;

ovozli ma'lumotlarga asoslangan identifikatsiya tizimining har bir algoritmlarini alohida modul sifatida ifodalashga asoslangan axborot tizimlari foydalanuvchilarini biometrik identifikatsiyalashning dasturiy majmuasi yaratilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

axborot tizimlariga, kirish-chiqishni nazorat qilish va boshqarish hamda kompyuter tarmoqlarida foydalanuvchilarni identifikatsiyalash tizimini yaratish uchun nutq asosida biometrik identifikatsiyalashning algoritmik ta'minoti ishlab chiqilgan;

nutq signallariga dastlabki ishlov berish algoritmlari, belgilar vektorini shakllantirish algoritmlari va chuqur neyron tarmoq asosida shaxsning ovoz modelini qurish algoritmi hamda identifikatsiyalash muammolarini yechishga mo'ljallangan dasturiy majmua ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tizim asosini tashkil etuvchi usul va algoritmlarni ishlab chiqishda nutq signallarini ishlash va identifikatsiyalash matematik apparatining to'g'ri qo'llanilganligi, o'tkazilgan tajribaviy va amaliy tadqiqotlarning ijobiy natijalari, hamda ishlab chiqilgan dasturiy majmuani mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati nutq signallariga raqamli ishlov berish asosida shaxsni nutqi asosida biometrik identifikatsiyalash texnologiyalarining nazariy asoslarini rivojlanishiga ishlab chiqilgan algoritmlarning hissa qo'shishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan dasturiy majmua axborot tizimlarida kirish-chiqishni nazorat qilish va boshqarish tizimlari foydalanuvchilarini identifikatsiyalash muammolarini hal etishda qo'llanilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Nutq signallariga raqamli ishlov berish va identifikatsiyalashning mavjud hamda taklif etilgan yondashuv, model, usul va algoritmlari asosida yaratilgan dasturiy majmua asosida:

dissertatsiya ishining ilmiy va nazariy ma'lumotlaridan, shuningdek, shaxsni identifikatsiyalash uchun kod kitoblarini yaratish algoritmi hamda ikki omilli autentifikatsiyalash masalasini yechish uchun so'zlar ketma –ketligini hosil qilish

algoritmi asosida ishlab chiqilgan dasturiy vosita O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligining amaliy faoliyatida tatbiq etilgan (BMBA 2024-yil 2-yanvardagi dalolatnomasi; O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2024-yil 19-martdagi 33-8/1867-son ma’lumotnomasi) Mazkur dasturiy majmuani qo‘llash natijasida xodimning ishchi stansiyadan foydalanishning xavfsizlik darajasini ikki barobarga oshirish imkonini bergan;

so‘zlovchini identifikatsiyalash uchun kod kitoblarini yaratish algoritmi hamda ikki omilli autentifikatsiyalash masalasini yechish uchun so‘zlar ketma –ketligini hosil qilish algoritmi asosida ishlab chiqilgan dasturiy vosita Aksiyadorlik tijorat “ALOQABANK” ning amaliy faoliyatida tatbiq etilgan (AT “ALOQABANK” 2024-yil 30-yanvardagi dalolatnomasi; O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2024-yil 19-martdagi 33-8/1867-son ma’lumotnomasi). Erishilgan ilmiy natijalar asosida ishlab chiqilgan dasturiy vosita tashkilotda xodimlarning kirish –chiqishini nazorat qilishga sarflanadigan vaqtni o‘rtacha 15% qisqartirish imkonini bergan;

dissertatsiyada olingan ilmiy natijalar asosida ishlab chiqilgan dasturiy vosita “SERVERCONF” mas’uliyati cheklangan jamiyatning amaliy faoliyatida tatbiq etilgan (“SERVERCONF” MChJ 2024-yil 15-yanvardagi dalolatnomasi; O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2024-yil 19-martdagi 33-8/1867-son ma’lumotnomasi). Dissertatsiyaning ilmiy natijalar asosida ishlab chiqilgan dasturiy vosita tashkilotda qo‘llash natijasi maxsus xonalarning xavfsizlik darajasini oshirish imkonini bergan.

foydalanuvchini nutq ma’lumotlariga asosan identifikatsiya qilish tizimi “Kiberxavfsizlik markazi” davlat unitar korxonasining lokal tarmog‘iga tatbiq etilgan (“Kiberxavfsizlik markazi” DUK 2024-yil 12-fevraldagi dalolatnomasi; O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2024-yil 19-martdagi 33-8/1867-son ma’lumotnomasi). Ishlab chiqilgan dasturiy vosita, axborot tizimlari, kirish-chiqishni nazorat qilish va boshqarish hamda kompyuter tarmoqlarida foydalanuvchilarni kirish-chiqishni nazorat qilishga sarflanadigan vaqtni o‘rtacha 15% ga qisqartirishga imkon bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 5 ta xorijiy va 6 ta respublika jurnallarida nashr etilgan hamda EHM uchun yaratilgan 3 ta dasturiy vositalarni qayd etish guvohnomalari olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 99 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, maqsad va vazifalar shakllantirilgan, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ko‘rsatib o‘tilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiq etilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Biometrik parametrlar asosida shaxsni tanib olish texnologiyalari”** deb nomlangan birinchi bobida biometrik parametrlar asosida shaxsni tanib olish texnologiyalari tahlil qilingan. Shuningdek, shaxsni ovozi asosida identifikatsiyalashga qaratilgan tahdidlar hamda shaxsni nutq asosida identifikatsiyalash texnologiyasining qo‘llanilish sohalari va muammolari o‘rganilgan.

*Birinchi paragrafda* biometrik parametrlar asosida shaxsni tanib olish texnologiyalari tahlili keltirilgan. Biometrik identifikatsiyalash usullari odatda ikki guruhga ajratiladi: fiziologik va xulq-atvor. Fiziologik identifikatsiyalash usullari barmoq yoki kaft izlari, ko‘z qorachig‘i yoki rangdor parda, 2 o‘lchovli va 3 o‘lchovli yuz tasvirlari va boshqalar kabi xususiyatlardan foydalanishdan iborat bo‘lsa, xulq-atvorga asoslangan parametrlarga inson ovozi, klaviaturada yozish uslubi, harakat tarzi kabilarni kiritish mumkin.


Har qanday biometrik tizim ishlashi asosida quyidagi harakatlar zanjiri yotadi (1-rasm):

– *yozish* - foydalanuvchining biometrik malumotlari skaner yordamida o‘qiladi;

– *ajratish* - taqdim etilgan biometrik malumotlardan noyob axborot tanlab olinadi va bu axborot muayyan shaxsning biometrik “obrazi” hisoblanadi;

– *taqqoslash* - taqdim etilgan biometrik obrazni tizim ma‘lumotlar bazasida saqlanuvchi bitta yoki ko‘p sonli etalonlar (shablonlar) bilan taqqoslash amalga oshiriladi;

– *qaror qabul qilish* - tizim biometrik obrazlar mosligini yoki mos emasligini hal etib identifikatsiya protsedurasining tuganlanganligi, uni takrorlash yoki o‘tkazish shartlarini o‘zgartirish xususida qaror qabul qiladi.




**1 -rasm. Biometrik identifikatsiya protsedurasi**

*Ikkinchi paragrafda* shaxsni ovozi asosida identifikatsiyalash tizimlariga qaratilgan tahdidlar tahlili amalga oshirilgan. Amalda ovozga asoslangan identifikatsiyalash tizimlarida ko‘plab tahdidlar, xususan, ovozni qalbakilashtirish, ovozni ko‘chirib qayta foydalanish, tizimni aldash, xizmat ko‘rsatishdan voz kechishga undash kabilar keng uchraydi. Shu sababli, keyingi bobda ishlab chiqiladigan ovozga asoslangan identifikatsiyalash tizimi uchun tahdid modelini ishlab chiqish, ularda mavjud risk darajalarini aniqlash masalasi bilan batafsil tanishib chiqiladi.

*Uchunchi paragrafda* shaxsni nutq asosida identifikatsiyalash texnologiyasining qo‘llanilish sohalari va ulardagi muammolar tahlil qilingan. Ovozga asoslangan xavfsizlik ilovalari asosan moliyaviy, firibgarlikni passiv nazoratlash, kriminalistika muammolarini yechish, tashkilotlarda kirishni nazoratlash, audio va video kontentlarni indekslash, videokuzatuv masalalarida qo‘llanilishi aniqlandi. Bundan tashqari ushbu tizimlarda jummalarning qisqaligi, ovoz fonidan shovqinning mavjud bo‘lishi, ularning real vaqt tizimida ishlashi bilan bog‘liq ko‘plab muammolar kuzatilishi tahlillar natijasida aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Shaxsni ovozi asosida biometrik identifikatsiyalashning zamonaviy holati”** deb nomlangan ikkinchi bobida shaxsni ovozi asosida identifikatsiyalash tizimining asosiy masalalari va ovoz asosidagi ilovalar uchun tahdid modeli keltirilgan hamda matnga bog‘liq va bog‘liq bo‘lmagan ovoz asosidagi autentifikatsiya usullari taklif qilingan.


*Birinchi paragrafda* shaxsni ovozi asosida identifikatsiyalash tizimining asosiy masalalari tahlil qilingan. Umumiy holda shaxsni tanib olishda ko‘plab masalalar yechilib, ularning muhimlari 2-rasmda keltirilgan.



**2-rasm. Shaxsni ovozi asosida identifikatsiyalash tizimi qamrab olgan masalalar**

Ushbu masalalardan amalda keng qo‘llaniladigani shaxsni ovozi asosida identifikatsiyalash bo‘lib, u noma‘lum shaxsni ovozi bo‘yicha oldindan aniqlangan shaxslar to‘plamidagi ma‘lum bir shaxsga bog‘lash bilan shug‘ullanadi. Shaxsni ovozi asosida verifikatsiyalash (autentifikatsiyalash) rejimi ikki toifali (binar) tasniflash vazifasiga mos keladi, bunda testlash namunasi to‘plami bir xil shaxslarga tegishlimi yoki yo‘qmi degan savol qiziqtiradi.


Shaxsni identifikatsiyalash va verifikatsiyalash tizimlarining asosiy tuzilmalari mos ravishda 3- (a) va (b) rasmlarda keltirilgan, bu ikki tizimda ham nutq signaliga birinchi navbatda shaxs haqida ma‘lumot beruvchi xususiyatlarni tanlash uchun, ishlov beriladi.



**3-rasm. Identifikatsiyalash va verifikatsiyalash tizimlarining tuzilishi**


*Ikkinchi paragrafda ovozga asoslangan ilovalar uchun amalga oshirishda bo‘lishi mumkin bo‘lgan tahdidlar va risklarning tahlili bilan tanishib chiqiladi. Xususan, STRIDE (Spoofing, Tampering, Repudiation, Information disclosure, Denial of Service, Elevation of privileges) metodologiyasi bo‘yicha tahdidlarni tasniflash, DREAD (Damage Potential, Reproducibility, Exploitability, Affected Users, Discoverability) modeli bo‘yicha tahdid risklarini baholash va ularga qarshi himoya choralalarini ko‘rish masalalari ko‘rib chiqiladi.*

Umumiy holda, ovozga asoslangan ilovalarni 4-rasmdagi kabi tasvirlash mumkin. Unga ko‘ra dastlab, foydalanuvchi tomonidan aytilgan buyruq (signal) foydalanuvchi tomonidagi tizimning mijoz qismiga kiritiladi. Ushbu qismtizim qabul qilingan ovoz buyrug‘ini audio signalga aylantirib, ishlash uchun tizimning server qismiga junatadi. Kiritilgan ma‘lumotga asosan server mos javobni hosil qiladi va uni mijozga qaytarishi yoki biror ruxsatni nazoratlash tizimidagi amalni (masalan, ruxsat berish) bajarishi mumkin. Bulutli xizmat mazkur arxitekturada tanlovga ko‘ra amalga oshirilib, ma‘lumotni saqlash yoki biror xizmatni amalga oshirishi mumkin bo‘ladi.



**4-rasm. Ovozga asoslangan ilovalar arxitekturasi**

Tahdidni modellashtirishda dastlabki qadamlardan biri-avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida mavjud tahdidlarni aniqlash. Ushbu vazifani bajarishda Microsoft Threat Modeling Tool v.7.3.31026.3 vositasidan foydalanildi. Umumiy holda ovozga asoslangan ilovalar uchun DFD (Data Flow Diagram) ko‘rinish 5-rasmda keltirilgan.



**5-rasm. Ovozga asoslangan ilovalar uchun DFD. Qizil rangli to'rtburchak ovozga asoslangan tizim qurilmasini ifodalaydi.**

Bunda dastlab foydalanuvchi tomonidan aytilgan buyruq mikrofon orqali tizimning mizoj qismiga audio signal sifatida yetkaziladi. Ilovaning mijoz qismi muhim ahamiyat kasb etib, ma'lumotni tizimning server qismiga va undan olingan javob asosida IoT kontrolleriga yuboradi. Bundan tashqari, amalga oshirilgan hakaratlar bo'yicha ovozi karnay orqali foydalanuvchi xabar yetkazadi. O'z navbatida ilovaning server tomoni o'z faoliyatini yuritishda bulutli xizmatlardan yoki ma'lumotlarni saqlash tizimlaridan foydalanishi mumkin. IoT kontrolleri esa bir necha IoT qurilmalarini boshqarish orqali biror xavfsizlik harakatini (masalan, eshikni ochish) amalga oshirishi mumkin.

**1-jadval**


**Ovozga asoslangan tizimdagi tahdidlar va ularning risk tahlili**

| Ma'lumot oqimi                         | Tahdid                                  | D         | R         | E         | A         | D         | Umumiy (D+R+E+A+D)/5 |
|--|---|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|----------------------|
| Audio signal (M→C)                     | Soxtalashtirish                         | 0         | 0         | 10        | 5         | 0         | 3                    |
| Ovozli buyruq (foydalanuvchi→mikrofon) | <b>Soxtalashtirish</b>                  | <b>10</b> | <b>10</b> | <b>10</b> | <b>10</b> | <b>10</b> | <b>10</b>            |
|  | O'zgartirish                            | 10        | 0         | 0         | 10        | 0         | 4                    |
|  | Xizmat ko'rsatishdan voz kechish        | 0         | 10        | 0         | 10        | 0         | 4                    |
| Xizmat javobi (S→M)                    | <b>O'zgartirish</b>                     | <b>10</b> | <b>10</b> | <b>10</b> | <b>10</b> | <b>5</b>  | <b>9</b>             |
|  | Axborotni oshkor bo'lishi               | 10        | 10        | 10        | 10        | 0         | 8                    |
|  | Xizmat ko'rsatishdan voz kechish        | 0         | 10        | 5         | 10        | 10        | 7                    |
| Nazorat so'rovi                        | Imtiyozlarni ortishi                    | 10        | 10        | 0         | 10        | 0         | 6                    |
|  | Soxtalashtirish                         | 10        | 10        | 5         | 10        | 0         | 7                    |
|  | <b>O'zgartirish</b>                     | <b>10</b> | <b>10</b> | <b>5</b>  | <b>10</b> | <b>10</b> | <b>9</b>             |
| Harakat javobi                         | Soxtalashtirish                         | 0         | 10        | 5         | 10        | 10        | 7                    |
|  | O'zgartirish                            | 0         | 10        | 0         | 10        | 10        | 6                    |
|  | Axborotni oshkor bo'lishi               | 10        | 10        | 5         | 5         | 0         | 6                    |
|  | <b>Xizmat ko'rsatishdan voz kechish</b> | <b>10</b> | <b>10</b> | <b>10</b> | <b>10</b> | <b>10</b> | <b>10</b>            |
|  | Imtiyozlarni ortishi                    | 10        | 0         | 0         | 0         | 0         | 2                    |
| Buyruq javobi                          | Axborotni oshkor bo'lishi               | 0         | 10        | 10        | 10        | 0         | 6                    |

Microsoft Threat Modeling Tool v.7.3.31026.3 vositasi yordamida olingan tahlil natijalari va tahdidlarning risk darajalari 1-jadvalda keltirilgan. DREAD modelidan foydalanib, quyidagi tarzda tavsiflangan besh toifaning har biriga tegishli tahdidning jiddiyligini raqamli qiymatlar (0 (quyi, qiyin), 5 (oʻrta) va 10 (yuqori, oson)) bilan aniqlash mumkin. Yakuniy reytingni hisoblashda tahdidning noravshan darajasi va uning sonli qiymatlari quyidagi tartibda belgilandi: yuqori (8-10), oʻrta (4-7) va quyi (0-3).

1-jadvalga, koʻra 2 ta quyi risk darajasiga, 10 ta oʻrta risk darajasiga va 4 ta yuqori risk darajasiga ega tahdidlar mavjud. Masalan, mikrofonga nisbatan soxtalashtirish tahdidiga koʻra autentifikatsiya mexanizmi mavjud boʻlmaganida, haqiqiy foydalanuvchini soxtalashtirish yoki ovozni obroʻsizlantirish imkoniyati mavjudligi sababli, qonuniy foydalanuvchilarning imtiyoziga ega boʻlishi mumkin. Shuning uchun,  $D = 10$  ga teng. Ushbu tahdidni amalga oshirish uchun qimmat boʻlmagan jihozlar talab etilgani bois,  $E = 10$  ga teng boʻlsa, hujumni amalga oshirish osonligi sababli,  $R = 10$  ga teng boʻladi. Aksariyat tizimlarda xavfsizlik masalasiga eʼtibor berilmaganligi, tizimning ovozni haqiqiyligini aniqlashning imkoni yoʻqligi sababli  $D = 10$  ga teng boʻladi. Va nihoyat, bu turdagi tahdidlar foydalanuvchiga jiddiy taʼsir qilgani bois  $A = 10$  ga teng boʻladi. Ushbu tahdid uchun umumiy risk darajasi 10 ga teng boʻladi.

*Uchinchi paragrafda* matnga bogʻliq va matnga bogʻliq boʻlmagan holda ovoz asosida autentifikatsiyalash usullarini ishlab chiqish masalasi koʻrib oʻtilgan. Soʻzlovchining modeli (odatda belgilar taqsimoti qiymati) – ovoz asosida autentifikatsiya tizimida qayd etilgan inson xarakteristikasi. Nutqni kiritish xiliga bogʻliq holda aniqlash tizimini ikki turga ajratish mumkin: matnga bogʻliq va matnga bogliq boʻlmagan tizimlar. Nutqni aniqlashning matnga bogʻliq tizimida foydalanuvchi oldindan maʼlum matn/iboralarni talaffuz qilish lozim. Ogʻzaki matn/iboralarni oldindan bilishda yaxshi aniqlik darajasiga erishiladi, ammo niyati buzuvchi tizim xavfsizligini buzish uchun haqiqiy foydalanuvchi matnini yozib olishi va keyinchalik tadqiqlashi mumkin.



**a) Matnga bogʻliq ovoz asosida autentifikatsiyalash jarayonining sxemasi**

**b) Matnga bogʻliq boʻlmagan ovoz asosida autentifikatsiyalash jarayonining sxemasi**


**6-rasm. Matnga bogʻliq hamda bogʻliq boʻlmagan ovoz asosida autentifikatsiyalash sxemalari**

Nutqni aniqlashning matnga bog‘liq bo‘lmagan tizimda foydalanuvchidan oldindan ma’lum matn/iboralar kutilmaydi. Foydalanuvchi tasodif tanlangan matn/iboralarni talaffuz etishi mumkin. Aniqlashning matnga bog‘liq bo‘lmagan tizimi ishlatishda moslanuvchan, ammo, matnga bog‘liq tizimga qaraganda aniqligi past. Matnga bog‘liq tizimga o‘xshab matnga bog‘liq bo‘lmagan tizim ham qayta tiklash hujumidan zarar ko‘radi.

Ushbu ikki holatda autentifikatsiyalash jarayonining blok sxemalari 6(a) va 6(b)-rasmlarda keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Nutq signallariga ishlov berish hamda nutq asosida shaxsni tanib olish usul va algoritmlari**” deb nomlangan uchinchi bobida nutq signali va unga dastlabki ishlov berish va nutq signali belgilarini ajratish algoritmlari keltirilgan hamda chuqur neyron tarmog‘iga asoslangan shaxsni ovozi asosida identifikatsiyalash modeli taklif qilingan.

*Birinchi paragrafda* nutq signaliga dastlabki ishlov berish algoritmi taklif etilgan (7-rasm). Ushbu algoritm u 3 ta bosqichdan iborat: analog shakldagi signalni raqamli shaklga o‘tkazish, VAD va filtrlash.



**7-rasm. Dastlabki ishlov berish algoritmi**

Dastlabki ishlov berish signal belgilarini ajratib olish bosqichiga tayyorlash uchun amalga oshiriladi. Signalga ichki organlar, tana yoki qo‘l harakatlari va h.k. sabab bo‘lgan shovqin ta’sir qilishi mumkin. Dastlabki ishlov berish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1) Past chastotalar filtrida keraksiz yuqori chastotali shovqin olib tashlanadi, ya’ni, 300 Gs chastotali elliptik past o‘tish filtri qo‘llaniladi.

2) Shovqinni olib tashlashda ma’lum bir chegaradan yuqori qiymatlar portlash shovqinini minimallashtirish uchun chegaralar bilan tenglashtiriladi.

3) Amplitudani normallashtirishda barcha signallar  $[-1,1]$  oralig‘iga keltiriladi.


Analog shakldan raqamli shaklga o‘tkazish. Analog shakldagi signallarni raqamli shaklga keltirishda quyidagi uchta jarayonni ko‘rsatish mumkin: diskretlash, kvantlash va kodlash.

VAD. Ovozli aloqada signalda nutq ma’lumotlari joylashgan oraliq nutq faol sohasi deb ataladi. Fon shovqinini mavjudligi yoki mavjud emasligidan qat’iy nazar, nutq ma’lumotlarini o‘z ichiga olmaydigan oraliq to‘xtash joylari deb ataladi. Adabiyotlarda nutq faolligi vaqt chegaralarini aniqlash algoritmi VAD (Voice Activity Detection) deb ataladi. VAD algoritmi signalni ikkita faollik A (activity) va S (silence) to‘xtash segmentga ajratish imkonini beradi.

Filtrlash. Nutq signalini oldindan qayta ishlashning navbatdagi bosqichi

